O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BERDIMURODOV MANSUR ALISHEROVICH

KRIPTOANALIZ MASALALARINI YECHISHNING MANTIQIY USULLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK: 004.056.55

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BERDIMURODOV MANSUR ALISHEROVICH

KRIPTOANALIZ MASALALARINI YECHISHNING MANTIQIY USULLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.4.PhD/FM553 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kabulov Anvar Vasilovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abduraximov Baxtiyor Fayziyevich** fizika-matematika doktori, professor
	Saidov Abdusobir Abduraxmonovich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**“UNICON.UZ” Davlat unitar korxonasi.**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning «___»_____2023 yil soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «____» _____kuni tarqatildi.
(2023 yil «____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d. professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

G.U. Jo‘rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy – amaliy tadqiqotlar natijasida vujudga keladigan kriptografiya va kriptotahlil muammolari aksariyat hollarda shifrlash algoritmlari xossalarini o‘rganish, ularni algebraik ifodalash masalalariga keltiriladi. Shifrlash algoritmi bardoshligini baholash va kriptografik akslantirishlarni ishlab chiqish amaliy matematika, diskret matematika, matematik modellashtirish va ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash kabi sohalardagi tadqiqotlarning ob’ektidir. Kriptotahlil usullari va hisoblash texnikasining rivojlanishi kriptotahlil masalalarini oson yechilishiga va shifrlash algoritmlari bardoshligini pasayishiga asos sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, axborot tizimlariga tahdidlarni oshishini hisobga olgan holda, amalda foydalanib kelinayotgan shifrlash algoritmlari ishonchliligini baholash muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda kriptografik shifrlash algoritmlarining akslantirishlari hususiyatlarini aniqlash, shifrlash algoritmlarini kriptotahlil usullari yordamida kriptobardoshligini baholash, kriptotahlilning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur holda kriptografik akslantirishlarni algebraik ifodalash, ularning sonli xarakteristikalarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy standart sifatida qabul qilingan shifrlash algoritmlari bardoshligini zamonaviy kriptotahlil usullari yordamida baholash va yangi milliy shifrlash algoritmlarini yaratish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan kriptologiyaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor ko‘chaytirildi. Jumladan, kriptografik akslantirishlar va algoritmlarni ishlab chiqish sohasida ma’lum yutuqlarga erishilib, axborotlarni uzatish va qayta ishlashning himoyalangan tizimlarini yaratishga alohida e’tibor qaratildi. “Amaliy matematika va matematik modellashtirish” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda algebraik kriptotahlil usullari asosida zamonaviy simmetrik shifrlash algoritmlarining optimal matematik modellarini yaratish va ularning asosida umumiy kriptografik talablarga baholashning mantiqiy usullarini ishlab chiqish va qo‘llash hamda ularning dasturiy ta’minotini yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantrish bo‘yicha harakatlar strategiyasi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori.

to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682 “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kriptotahlil usullari yordamida baholash masalalari bir qator olimlar, jumladan: Aleks Biryukov, Xovratovich Dmitriy, N.T.Courtois, Nils Fergyuson, Richard Shreppel, Doug Whiting, S.A.Kabakov, O.Ye.Aleksandrov. L.Babenko, M.Aripov, B.Abduraximov, G‘.Tuychiyev, A.Sattarov, D.Kuryazov va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Shifrlash algoritmlarini umumiy kriptografik talablar orqali baholashda G‘.Tuychiyev, D.Kuryazov, A.Sattarov, Aleks Biryukov, Xovratovich Dmitriy va boshqalarning ishlarida shuningdek AES, GOST R34.12-2015 (Kuznechik) standart shifrlash algoritmlariga nisbatan algebraik kriptotahlil usuli N.T.Courtois, Aleks Biryukov, Xovratovich Dmitriy va boshqalarning ishlarida samarali natijalar olingan.

Shifrlash algoritmi va bardoshli kriptografik akslantirishlarni baholash masalalari bilan bog‘liq tadqiqotlar bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan, jumladan: A.Youssef, N.Courtois, B.Shnayer, K.Shennon, G.Murtaza, I.Hussain, J.Nakahara, J.Rijmen, K.Chand, K.Gupta, K.Nyberg, M.Malik, Hasan Omar, Zhou Yuyang, P.Junod, M.Aripov, M.Karimov, B.Abduraximov, R.Oleynikov, T.Chalkin, G.U.Jo‘rayev, D.Kuryazov, A.Sattarov, A.V.Kabulov va boshqalar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq, BV-M-F4-004 “Funksional jadvallar algebrasi asosida murakkab tizimlar boshqarishini algoritmlashtirish prinsiplarini ishlab chiqish” va F3-201906117 “Orolbo‘yi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ekologik vaziyatlar ta’sirini aniqlash monitoringini yuritishning dasturiy ta’minoti” ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi AES va GOST R34.12-2015(Kuznechik) kriptografik shifrlash algoritmlaridagi akslantirishlarni va ularning bardoshligini tahlil qilish, algebraik kriptotahlil usuli yordamida baholash hamda mantiqiy usullar yordamida turli bazislardagi matematik modelini yaratish va

murakkabligini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

algebraik kriptotahlil usullari asosida zamonaviy simmetrik shifrlash algoritmlarining optimallashtirilgan matematik modellarini yaratish;

zamonaviy simmetrik shifrlash algoritmlarining yaratilgan matematik modellari asosida umumiy kriptografik talablarga baholashning mantiqiy usullarini ishlab chiqish;

zamonaviy simmetrik shifrlash algoritmlarining matematik modellari asosida turli bazislardagi tenglamalar tizimini yaratish va yechish algoritmlarini ishlab chiqish hamda ularning murakkabligini baholash;

AES va GOST R34.12-2015 (Kuznechik) simmetrik blokli shifrlash algoritmlaridagi akslantirishlarni turli bazisdagi bul funksiyalarga keltirish mezonlari va algoritmini ishlab chiqish;

AES-128 va GOST R34.12-2015 (Kuznechik) standartidagi akslantirishlarning, Jegalkin ko‘phadidagi va dizyunktiv normal shakldagi bul tenglamalar tizimini yechishning dasturiy ta’minotini ishlab chiqish;

Kuznechik shifrlash algoritmi mikrobuyruqlari ketma-ketligini mikrokontrollerlarga o‘tkazishda optimallashtirilgan bul formulalarida ifodalash;

bul monoton funksiyalarning maksimal yuqori nolini izlash asosida mantiqiy tenglamalar tizimlarining maksimal qism tizimini topish va mantiqiy tenglamalar tizimlarini yechish algoritmi ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan optimallashtirilgan matematik modellar asosida algebraik kriptotahlilni o‘tkazish.

Tadqiqotning ob’ekti kriptografik algoritmlar, akslantirishning matematik modellari, bul tenglamalar tizimi, algoritmlar mikrobuyruqlarining bul funksiya shakllaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti akslantirishning matematik modellari, kriptografik algoritmlar kriptobardoshligi, algebraik va mantiqiy jarayonlar, kriptoanaliz tahlili va tadqiqi, kriptotizimlarning bul jadvallari va kriptografik algoritmlarning bul funksiyalari, kriptoalgoritmlar mikrobuyruqlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida kriptotahlil, bul tenglamalar nazariyasi, mikrobuyruqlar nazariyasi, mantiqiy modellar, algebra va matematik mantiq usullari va ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

AES, GOST R34.12-2015 (Kuznechik), A5/1 algoritmlarining algebraik kriptotahlil usullari asosida optimallashtirilgan matematik modellari yaratilgan;

AES, GOST R34.12-2015 (Kuznechik) zamonaviy simmetrik shifrlash algoritmlari qurilgan matematik modellari asosida umumiy kriptografik talablarga baholangan va ularga nisbatan turli bazisda algebraik kriptotahlil o‘tkazilgan;

Kuznechik shifrlash algoritmi mikrobuyruqlari ketma-ketligini mikrokontrollerlarga o‘tkazishda optimallashtirilgan bul formulalari yaratilgan;

AES, GOST R34.12-2015 (Kuznechik) va A5/1 simmetrik shifrlash algoritmlaridagi akslantirishlarni turli bazisdagi bul funksiyalarga keltirish

mezonlari va algoritmi ishlab chiqilgan hamda bir bazisdan ikkinchi bazisga transformatsiya qilish teoremalari isbotlangan;

Bul monoton funksiyalarning maksimal yuqori nolini izlash asosida mantiqiy tenglamalar tizimlarini yechish algoritmlari ishlab chiqilgan va ularning murakkabligi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

Kriptotizimlardagi algoritmlarning graf-sxemasi asosida bul jadvallari qurilgan;

Kuznechik shifrlash algoritmlari mikrobuyruqlari ketma-ketligini mikrokontrollerlarga o‘tkazishda optimallashtirilgan bul formulalari yaratilgan;

AES-128 va GOST R34.12-2015 (Kuznechik) standartlaridagi akslantirishlarning optimallashtirilgan matematik modellari ishlab chiqilgan;

AES-128 va GOST R34.12-2015(Kuznechik) standartlari turli bazisdagi matematik modellar asosida algebraik kriptotahlil o‘tkazilgan va kriptobardoshligi baholangan;

shifrlash algoritmlaridagi akslantirishlarning bul funksiyalarga asoslangan matematik modeli qurilgan;

Jegalkin ko‘phadidagi va dizyunktiv normal shakldagi chiziqsiz bul tenglamalar tizimini yechishning dasturiy ta’minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik mulohazalarning qat’iyligi, diskret matematika va matematik mantiq usullarini qo‘llanilganligi, zamonaviy simmetrik shifrlash algoritmlarining matematik modellari yaratilganligi, umumiy kriptografik talablarga baholashning mantiqiy usullarini ishlab chiqilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy simmetrik shifrlash algoritmlarining ishlab chiqilgan va optimallashtirilgan matematik modellari asosida umumiy kriptografik talablarga baholashning mantiqiy usullarini ishlab chiqilganligi va bu modellar asosida algebraik kriptotahlil olib borilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘rnatilgan mikroprotsessorli tizimlarda Kuznechik shifrlash algoritmi mikrobuyruqlari ketma-ketligini mikrokontrollerlarga o‘tkazishda optimallashtirilgan bul formulalari yaratilgan va ularni apparat-dasturiy vositalarda qo‘llanishga qulayligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. AES, Kuznechik, A5/1 zamonaviy shifrlash algoritmlari uchun yaratilgan va optimallashtirilgan matematik modellar va umumiy kriptografik talablarga baholashda olingan natijalar asosida:

AES, Kuznechik shifrlash algoritmlarining optimallashtirilgan matematik modeli hamda umumiy kriptografik talablarga baholash natijalari OT-Atex-2018-486 “Mantiqiy boshqaruv va axborot xavfsizligi tizimlarini dasturlashtirilgan mantiqiy kontrollerlar va ularni loyihalovchi avtomatlashtirilgan CAD mantiqiy tizimi asosida amalga oshirish” loyihasida shifrlash algoritmlarini mikrokontrollerlarga yozishda mikrobuyruqlarning bul funksiya shakllarini tahlil qilish va optimallashtirishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti 2022-yil 17-maydagi 04/10-2807–son

ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo‘llash mikrokontrollerga shifrlash algoritmlarini optimal yozish va tahlil qilish imkonini bergan.

zamonaviy simmetrik shifrlash algoritmlari uchun shifrlash algoritmlarini umumiy kriptografik talablarga baholash qoidalaridan “UNICON.UZ” DUKda olib borilayotgan “Kriptografik algoritmlar yaratish” loyihasi doirasida kriptografik algoritmlarni zamonaviy kriptotahlil usullari yordamida baholash jarayonida foydalanilgan. Shuningdek dissertatsiya ishida keltirilgan GOST R34.12-2015 simmetrik blokli shifrlash algoritmidagi akslantirishlarni turli bazisdagi bul funksiyalarga keltirish mezonlari va algoritmini qo‘llash yechimlaridan “UNICON.UZ” DUKda milliy himoyalangan tizimlarda foydalanilayotgan simmetrik blokli shifrlash algoritmlari bardoshligini baholashda qo‘llanilgan (“UNICON.UZ” DUKning 2022-yil 10-iyundagi 5-3/945–son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo‘llash milliy himoyalangan tizimlarda foydalanilayotgan simmetrik blokli shifrlash algoritmlari bardoshligini baholash va tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 4 tasi xorijiy (4 ta skopus) va 5 tasi Respublika jurnallarida chop etilgan. Shuningdek, 4 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob’ekti va predmeti tavsiflanadi, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatiladi. Izlanishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Natijalar, ularni amaliyotga tatbiq etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaninig **“Zamonaviy simmetrik shifrlash algoritmlarining algebraik kriptotahlil uchun optimallashtirilgan matematik modellarini yaratish va umumiy kriptografik talablarga baholash”** nomli I bobida AES shifrlash algoritmining *SubBytes*, *ShiftRows*, *MixColumns* va *AddRoundKey* akslantirishlari, GOST R34.12-2015(Kuznechik) standart algoritmidagi *S, L, X* akslantirishlarining bul funksiyalarga asoslangan matematik modelini qurish algoritmi va har bir akslantirishlarning Jegalkin ko‘phadi hamda dizyunktiv

normal shakllaridagi(d.n.sh.) matematik modeli keltirilgan. Bul funksiyalar asosida akslantirishlarni umumiy kriptografik talablarga baholash tahlil qilingan. 1.1-paragrafda algebraik kriptotahlil asosida shifrlash algoritmlarini umumiy kriptografik talablarga baholash keltirilgan. Bul funksiya va akslantirishlarni baholash uchun zarur bo‘lgan ayrim matematik tushunchalar keltirilgan. 1.2-paragrafda AES kriptografik algoritmining optimallashtirilgan matematik modellarini yaratish va umumiy kriptografik talablarga baholash keltirilgan. Shuningdek, ushbu paragrafda shifrlash algoritmidagi har bir akslantirishlarning bul funksiyalarga asoslangan matematik modellari qurilgan. *AddRoundKey* akslantirishi raund kalitini qo‘shish akslantirishi bo‘lib, akslantirishga kiruvchi va chiquvchi bitlar quyidagicha aniqlangan $y_j = x_j \oplus k_{i\,j}, (j = \overline{0,127})$ (bu yerda $K_i = (k_{i0}, k_{i1}, \cdots, k_{i127}), (i = \overline{0,10})$ raund kalitlar). *SubBytes* chiziqsiz akslantirishi a_i kiruvchi va b_i chiquvchi bitlari mos ravishda 256 ta turli qiymat qabul qilishi mumkin. Kiruvchi a_i bayt qiymatlarini o‘sish tartibida unga mos ravishda chiquvchi b_i bayt qiymatlari 8 o‘zgaruvchili 8 ta bul funksiyasining rostlik jadvali hosil bo‘ladi. Bu yerda $i = 8 \cdot t,\ \ t = \overline{0,15}$ *SubBytes* chiziqsiz akslantirishidagi chiquvchi $b_i (i = \overline{0,15})$ bayt quyidagicha aniqlanadi:

$$\left.\begin{array}{l} y_{i*8} = S_0(a_i), y_{i*8+1} = S_1(a_i), \cdots, y_{i*8+7} = S_7(a_i) \\ b_i = y_{i*8} \,||\, y_{i*8+1} \,||\, y_{i*8+2} \,||\, y_{i*8+3} \,||\, y_{i*8+4} \,||\, y_{i*8+5} \,||\, y_{i*8+6} \,||\, y_{i8+7} \end{array}\right\} \quad (1)$$

Aniqlangan $S_i(x)$, chiquvchi bit funksiyalarning qiymati asosida mukammal d.n.sh. va undan so‘ng Karto – Karno va Kvayn minimallashtirish usullari yorda-mida minimal d.n.sh. ifodasiga olib kelingan. AES shifrlash algoritmidagi *SubBytes* va *SubBytes teskari* chiziqsiz akslantirishlaridan chiquvchi y_i $(i = \overline{0,7})$ bitlarning minimal d.n.sh. va algebraik normal shakldagi(a.n.sh.) optimallashtirilgan matematik modellari qurilgan. *SubBytes* va *SubBytes teskari* chiziqsiz akslantirishlarini ifodalovchi bul funksiyalar umumiy kriptografik talablarga baholandi. *SubBytes* chiziqsiz akslantirishini ifodalovchi bul funksiyaning umumiy kriptografik talablarga baholari 1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

SubBytes akslantirish $(i = 8 \cdot t,\ t = \overline{0,15})$ 1-jadval.

SubBytes	y_i	y_{i+1}	y_{i+2}	y_{i+3}	y_{i+4}	y_{i+5}	y_{i+6}	y_{i+7}
Balanslanganlik	+	+	+	+	+	+	+	+
Regulyarlik	+							
A.n.sh.da algebraik chiziqsizlik ($def(y)$)	7	7	7	7	7	7	7	7
Chiziqsizlik $N(y)$	112	112	112	112	112	112	112	112
Algebraik immuniteti	2							
Korrelyatsion immunitet	0	0	0	0	0	0	0	0
A.n.sh. da e.k. soni	108	110	112	129	134	143	131	130

D.n.sh. da algebraik chiziqsizlik ($def(y)$)	7	8	7	7	8	7	7	7
D.n.sh.da e.k. soni	55	52	59	49	54	50	53	49

ShiftRows(SR) – bu baytli siljitish akslantirishi bo‘lib, akslantirishning bitlar shaklidagi ifodasi quyidagi (2) kabi aniqlanadi.

$$\left.\begin{array}{l} y_k = x_k; y_{8+k} = x_{40+k}; y_{16+k} = x_{80+k}; y_{24+k} = x_{120+k}; y_{32+k} = x_{32+k}; y_{40+k} = x_{72+k}; \\ y_{48+k} = x_{112+k}; y_{56+k} = x_{24+k}; y_{64+k} = x_{64+k}; y_{72+k} = x_{104+k}; y_{80+k} = x_{16+k}; y_{88+k} = x_{56+k}; \\ y_{96+k} = x_{96+k}; y_{104+k} = x_{8+k}; y_{112+k} = x_{48+k}; y_{120} = x_{88+k}; \text{ bu yerda } k = \overline{0,7} \end{array}\right\} (2)$$

MixColums(MC) akslantirishdan chiquvchi $b_j\ (j = \overline{0,15})$ baytlarni bul funksiyaga o‘tkazish uchun (3) tengliklardan foydalanish mumkin.

$$\left.\begin{array}{l} f(x) = (t_7t_6t_5t_4t_3t_2t_1t_0); \quad 0\bullet f(x) = 0; \quad 01\bullet f(x) = f(x); \\ 02\bullet f(x) = x\bullet f(x) = \begin{cases} (t_6t_5t_4t_3t_2t_1t_0 0) \text{ agar } t_7 = 0 \\ (t_6t_5t_4t_3t_2t_1t_0 0) \oplus (00011011) \text{ agar } t_7 = 1 \end{cases} \\ 03\bullet f(x) = \{01 \oplus 10\}\bullet f(x) = \{01_2 \bullet f(x)\} \oplus \{10_2 \bullet f(x)\} = f(x) \oplus x\bullet f(x) \end{array}\right\} \quad (3)$$

Akslantirishdan chiquvchi $y_j\ (j = \overline{0,127})$ bitlarning bul funksiya shaklidagi matematik modellari yordamida(14-ilova) 1-2 tasdiqlar isbotlangan.

1-tasdiq. *MixColumns* chiziqli akslantirishdan chiquvchi har bir bitning, kiruvchi nechta bit qiymatlarga bog‘liqlik qiymati mos ravishda {5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5, 5, 5, 5, 7, 7, 5, 7, 5} qiymatlarga teng.

2-tasdiq. *MixColumns* chiziqli akslantirishga kiruvchi har bir bitning chiquvchi nechta bit qiymatlarga bog‘liqlik qiymati mos ravishda {11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 11, 5, 5, 5, 5, 5, 5, 5} qiymatlarga teng.

1.3-paragrafda GOST R34.12-2015 standart kriptografik algoritmining optimallashtirilgan matematik modellarini yaratish va umumiy kriptografik talablarga baholash keltirilgan. Kuznechik kriptografik algoritmining kalitlarni (*X*(*K*,*M*)) qo‘shish algoritmi quyidagi (4) formula bilan amalga oshiriladi:

$$\left.\begin{array}{l} X(K_i, M) = K_i \oplus M; (i = \overline{1,10}) M = (m_0 \| m_1 \| ... \| m_{127}); \\ K_i = (k_0 \| k_1 \| ... \| k_{127}); \ X = (k_0 \| k_1 \| ... \| k_{127}) \oplus (m_0 \| m_1 \| ... \| m_{126} \| m_{127}) \end{array}\right\} \quad (4)$$

S–chiziqsiz akslantirishdan chiquvchi $y_i\ (i = \overline{0,127})$ bitlarning (a,b,c,d,e,f,g,h) 8 o‘zgaruvchili bul funksiya shakldagi matematik modeli

qurilgan. S va S^{-1} chiziqsiz akslantirishlarini ifodalovchi bul funksiyalar umumiy kriptografik talablarga baholandi. S akslantirishining kriptografik talablarga bahosi 2-jadvalda keltirilgan.

S chiziqsiz akslantirish $(i = 8 \cdot t,\ t = \overline{0,15})$ 2-jadval.

S	y_i	y_{i+1}	y_{i+2}	y_{i+3}	y_{i+4}	y_{i+5}	y_{i+6}	y_{i+7}
Balanslanganlik	+	+	+	+	+	+	+	+
Regulyarlik	+							
A.n.sh.da algebraik chiziqsizlik ($def(y)$)	7	7	7	7	7	7	7	7
Chiziqsizlik $N(y)$	104	106	116	104	110	106	102	104
Algebraik immuniteti	3							
Korrelyatsion immunitet	0	0	0	0	0	0	0	0
A.n.sh. da e.k. soni	137	132	143	135	122	125	123	122
D.n.sh. da algebraik chiziqsizlik ($def(y)$)	7	7	7	7	7	8	7	7
D.n.sh.da e.k. soni	53	50	49	49	62	55	52	48

L chiziqli akslantirishning umumiy matematik modellari (13-ilova) asosida 3,4-tasdiqlar isbot qilingan.

3-tasdiq. L chiziqli akslantirishdan chiquvchi har bir bitning, kiruvchi nechta bit qiymatlarga bog‘liqlik qiymati mos ravishda {98, 100, 87, 82, 88, 97, 97, 93, 100, 91, 103, 104, 92, 87, 99, 107, 102, 99, 91, 102, 101, 96, 103, 87, 101, 96, 106, 96, 102, 96, 90, 101, 106, 95, 88, 97, 91, 90, 100, 102, 103, 97, 101, 96, 92, 94, 90, 100, 106, 102, 103, 101, 94, 106, 100, 106, 93, 96, 96, 90, 95, 97, 93, 87, 99, 107, 102, 101, 106, 104, 106, 99, 105, 102, 102, 100, 106, 104, 101, 106, 102, 103, 87, 100, 99, 95, 99, 108, 106, 95, 91, 103, 99, 97, 95, 101, 105, 98, 93, 99, 94, 92, 101, 91, 98, 95, 98, 94, 91, 93, 97, 101, 99, 99, 88, 85, 82, 94, 87, 93, 65, 62, 40, 42, 44, 54, 57, 59} qiymatlarga teng.

4-tasdiq. L chiziqli akslantirishga kiruvchi har bir bitning chiquvchi nechta bit qiymatlarga bog‘liqlik qiymati mos ravishda {123, 101, 106, 89, 103, 97, 108, 94, 105, 107, 98, 95, 105, 68, 87, 77, 106, 102, 95, 103, 93, 90, 100, 81, 109, 80, 90, 107, 77, 86, 94, 69, 109, 99, 108, 105, 108, 104, 106, 95, 102, 103, 104, 107, 105, 83, 103, 88, 93, 97, 77, 75, 100, 91, 89, 95, 118, 109, 100, 104, 104, 100, 91, 110, 77, 74, 80, 76, 83, 88, 94, 94, 114, 111, 107, 105, 108, 86, 103, 95, 114, 103, 115, 112, 112, 90, 101, 97, 116, 77, 83, 116, 72, 74, 64, 78, 114, 93, 99, 107, 95, 101, 98, 81, 114, 118, 76, 99, 115, 62, 86, 65, 123, 79, 83, 93, 101, 86, 115, 93, 70, 56, 71, 75, 80, 60, 83, 84} qiymatlarga teng.

Kuznechik shifrlash algoritmining umumiy analitik shakli aniqlangan. Aniqlangan analitik shaklda quyidagicha noma’lumlar va tenglamalar hosil bo‘ldi (3-jadval).

Kuznechik algoritmi umumiy parametrlari 3-jadval.

Raund	Kalit noma'lum	Jami noma'lum	$def(y)$	E.k. soni a.n.sh.da	E.k. soni d.n.sh.da
1	128	$2\cdot128$	7	$143\cdot107$	$\le r_1 = 2^8\cdot62\cdot2^{106}+1$
2	$2\cdot128$	$3\cdot128$	49	$(143\cdot107)^2\cdot107$	$\le r_2 = r_1^8\cdot62\cdot2^{106}+1$
n	$128\cdot n$	$(n+1)\cdot128$	7^n	$(143\cdot107)^7\cdot107$	$\le r_n = r_{n-1}^{\ 8}\cdot62\cdot2^{106}+1$
10	$10\cdot128$	$11\cdot128$	1408	$(143\cdot107)^{10}\cdot107$	$\le r_{10} = r_9$
Jami	1280	1408	1408	$\approx 7.53\cdot10^{43}$	

1.4-paragrafda A5/1 oqimli shifrlash algoritmining turli bazisdagi matematik modellarini qurish keltirilgan. Har bir kalit bitini hisoblash qadamida $m = maj(x_8, y_{10}, z_{10})$ major qiymat hisoblanadi. Major qiymatni aniqlash algoritmining $\{\vee,\wedge,\neg\}$ va $\{\oplus,\wedge,1\}$ bazislarida bul funksiyaga asoslangan matematik modellari taklif qilingan: $m = x_8y_{10} \vee x_8z_{10} \vee y_{10}z_{10}$; $m = x_8y_{10} \oplus x_8z_{10} \oplus y_{10}z_{10}$.

***X* registrida siljish.** X registrida x_8 bit qiymatining major qiymatiga teng bo'lish yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar siljitish jarayonini $\{\oplus,\wedge,1\}$ bazisi Jegalkin ko'phadidagi matematik modeli (5), $\{\vee,\wedge,\neg\}$ bazisi d.n.sh.dagi matematik modeli (6) ko'rinishida aniqlangan:

$$\left.\begin{aligned} &t = x_{13} \oplus x_{16} \oplus x_{17} \oplus x_{18};\\ &x_i = (m \leftrightarrow x_8)x_{i-1} \vee \overline{(m \leftrightarrow x_8)}x_i = x_{i-1} \oplus x_8x_i \oplus x_8x_{i-1} \oplus mx_i \oplus mx_{i-1};\\ &(\text{bu yerda } i = \overline{18,1});\ x_0 = t \oplus x_8x_0 \oplus x_8t \oplus mx_0 \oplus mt. \end{aligned}\right\} \quad (5)$$

$$\left.\begin{aligned} &t = x_{13}x_{16}x_{17}\overline{x_{18}} \vee x_{13}\overline{x_{16}x_{17}x_{18}} \vee x_{13}x_{16}\overline{x_{17}}x_{18} \vee x_{13}\overline{x_{16}}x_{17}x_{18} \vee\\ &\vee\overline{x_{13}}x_{16}\overline{x_{17}x_{18}} \vee \overline{x_{13}}x_{16}x_{17}x_{18} \vee \overline{x_{13}x_{16}}x_{17}\overline{x_{18}} \vee \overline{x_{13}x_{16}x_{17}}x_{18}\\ &x_i = (m \leftrightarrow x_8)x_{i-1} \vee \overline{(m \leftrightarrow x_8)}x_i = x_i\,x_{i-1} \vee mx_8x_{i-1} \vee m\overline{x_8}x_i \vee\\ &\vee\overline{m}x_8x_i \vee \overline{m}\,\overline{x_8}x_{i-1}; \qquad (\text{bu yerda } i = \overline{18,1})\\ &x_0 = (m \leftrightarrow x_8)t \vee \overline{(m \leftrightarrow x_8)}x_0 = x_0t \vee mx_8t \vee m\overline{x_8}x_0 \vee \overline{m}x_8x_0 \vee \overline{m}\,\overline{x_8}t. \end{aligned}\right\} \quad (6)$$

***Y* registrida siljish.** Y registrida siljitish jarayonini $\{\oplus,\wedge,1\}$ bazisi Jegalkin ko'phadidagi matematik modeli (7), $\{\vee,\wedge,\neg\}$ bazisi d.n.sh. formulasidagi optimallashtirilgan matematik modeli (8) ko'rinishida aniqlangan:

$$\left.\begin{aligned} &t = y_{20} \oplus y_{21}; \quad (\text{bu yerda } i = \overline{21,1});\\ &y_i = (m \leftrightarrow y_{10})y_{i-1} \vee \overline{(m \leftrightarrow y_{10})}y_i = y_{i-1} \oplus y_{10}y_i \oplus y_{10}y_{i-1} \oplus my_i \oplus my_{i-1};\\ &y_0 = (m \leftrightarrow y_{10})t \vee \overline{(m \leftrightarrow y_{10})}y_0 = mt \oplus y_{10}t \oplus my_0 \oplus y_{10}y_0 \oplus t. \end{aligned}\right\} \quad (7)$$

$$\left.\begin{array}{l} t = y_{20} \oplus y_{21} = y_{20}\overline{y_{21}} \vee \overline{y_{20}}y_{21};\ \ y_i = (m \leftrightarrow y_{10})y_{i-1} \vee \overline{(m \leftrightarrow y_{10})}y_i = y_i\, y_{i-1} \vee \\ \vee my_{10}y_{i-1} \vee m\overline{y_{10}}y_i \vee \overline{m}y_{10}y_i \vee \overline{m}\,\overline{y_{10}}y_{i-1};\quad (\text{bu yerda } i = \overline{21,1}); \\ y_0 = (m \leftrightarrow y_{10})t \vee \overline{(m \leftrightarrow y_{10})}y_0 = y_0 t \vee my_{10}t \vee m\overline{y_{10}}y_0 \vee \overline{m}y_{10}y_0 \vee \overline{m}\,\overline{y_{10}}t. \end{array}\right\} \quad (8)$$

***Z* registrida siljish.** Z registrida siljitish jarayonini $\{\oplus, \wedge, 1\}$ bazisi Jegalkin ko‘phadidagi matematik modeli (9), $\{\vee, \wedge, \neg\}$ bazisi d.n.sh. formulasidagi optimallashtirilgan matematik modeli (10) ko‘rinishida aniqlangan:

$$\left.\begin{array}{l} t = z_7 \oplus z_{20} \oplus z_{21} \oplus z_{22};\ \ z_i = (m \leftrightarrow z_{10})z_{i-1} \vee \overline{(m \leftrightarrow z_{10})}z_i = \\ = z_{i-1} \oplus z_{10}z_i \oplus z_{10}z_{i-1} \oplus mz_i \oplus mz_{i-1}; \qquad \left(\text{bu yerda } i = \overline{22,1}\right) \\ z_0 = (m \leftrightarrow z_{10})t \vee \overline{(m \leftrightarrow z_{10})}z_0 = mt \oplus z_{10}t \oplus mz_0 \oplus z_{10}z_0 \oplus t. \end{array}\right\} \quad (9)$$

$$\left.\begin{array}{l} t = z_7 \oplus z_{20} \oplus z_{21} \oplus z_{22} = z_7 z_{20} z_{21}\overline{z_{22}} \vee z_7\overline{z_{20}}\,\overline{z_{21}}\,\overline{z_{22}} \vee z_7 z_{20}\overline{z_{21}}z_{22} \vee z_7\overline{z_{20}}z_{21}z_{22} \vee \\ \vee \overline{z_7}z_{20}\,\overline{z_{21}}\,\overline{z_{22}} \vee \overline{z_7}z_{20}z_{21}z_{22} \vee \overline{z_7}\,\overline{z_{20}}z_{21}\overline{z_{22}} \vee \overline{z_7}\,\overline{z_{20}}\,\overline{z_{21}}z_{22};\ \ z_i = (m \leftrightarrow z_{10})z_{i-1} \vee \\ \vee \overline{(m \leftrightarrow z_{10})}z_i = z_i\, z_{i-1} \vee mz_{10}z_{i-1} \vee m\overline{z_{10}}z_i \vee \overline{m}z_{10}z_i \vee \overline{m}\,\overline{z_{10}}z_{i-1}; (\text{bu yerda } i = \overline{22,1}) \\ z_0 = (m \leftrightarrow z_{10})t \vee \overline{(m \leftrightarrow z_{10})}z_0 = z_0 t \vee mz_{10}t \vee m\overline{z_{10}}z_0 \vee \overline{m}z_{10}z_0 \vee \overline{m}\,\overline{z_{10}}t. \end{array}\right\} \quad (10)$$

Dissertatsiyaning II bobida mantiq algebrasida monoton funksiyalarning maksimal yuqori nolini topish asosida bul tenglamalar tizimining maksimal qism tizimlari topish va yechish uchun algoritm taklif qilingan. Shuningdek bobda dizyunktiv normal shakllar sinfidagi mantiqiy funksiyalarni minimallashtirishda analitik o‘zgarishlar, mantiqiy ifodalarni umumiy shaklga aylantirish uchun ba’zi analitik formulalar keltirilgan. Turli xil analitik ifodalarni hosil qilish va transformatsiya masalalari yechilgan va mantiq algebrasi funksiyalarining bir bazisdan ikkinchi bazisga transformatsiya qilish teoremalari isbotlangan. Hamda Jegalkin ko‘phadini optimaltirish usullari keltirib o‘tilgan.

2.1-paragrafda monoton mantiqiy bul funksiyalarining maksimal yuqori nolini topish usuli asosida mantiqiy bul tenglamalar tizimining(TT) maksimal qism tizimlarini topish masalasini yechilgan. Ushbu paragrafda monoton mantiqiy funksiyalarning maksimal yuqori nollarni qidirish masalasining A_K Katerinochkina algoritmining samarali A_M modifikatsiyasi ishlab chiqilgan.

Mantiqiy bul tenglamalar tizimining maksimal qism tizimlarini topish masalasini yechish

$$M = \left\{ f_1(x_1, x_2, ..., x_n) = 1;\ f_2(x_1, x_2, ..., x_n) = 1;\ \ldots;\ f_m(x_1, x_2, ..., x_n) = 1. \right\} \quad (11)$$

(11) kabi mantiqiy tenglamalar tizimi berilgan bo‘lsin. Tizimning maksimal qism tizimlarini topish algoritmi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: 1) ifodalarning qiymatlar tasvirini hisoblash; 2) yuqoridagi algoritmidan foydalangan holda maksimal qism tizimlarni shakllantirish. Har bir (12) qism tizimlarning mosligini tahlil qilish.

$$\left\{ f_{j_1}(x_1, ..., x_n) = 1;\ f_{j_2}(x_1, ..., x_n) = 1;\ \ldots;\ f_{j_\kappa}(x_1, ..., x_n) = 1. \right\} \quad (12)$$

Tahlil qilishda $\prod_{i=1}^{\kappa}\Delta f_{j_i}=\tilde{0}$ qiymat yagona ekanligini tekshiramiz. Agar bu yagona hisoblansa, u holda qaralayotgan qism tizim birgalikda bo‘lmaydi; 3) barcha maksimal qism tizimlarning qiymatlar tasvirlarini mantiqiy ko‘paytirishni hisoblash; 4) barcha qiymatlar tasvirini M to‘plamini shakllantirish.

Mantiqiy ifodalarni analitik o‘zgartirishga asoslangan mantiqiy tenglamalar tizimini yechishni qarab o‘tamiz. Algoritm quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. 1) (11) tizim tenglamalaridagi ifodalarni D^1 d.n.sh. bazisdagi formulalar orqali ifodalash; 2) A_M algoritmdan foydalangan holda (12) tizimning maksimal qism tizimlarini qurish. Berilgan qism tizimning mosligini tahlil qilish, qism tizim yechimga ega ekanligini tekshirish; 3) teng kuchli tenglamalarni olib tashlash; 4) (12) ko‘rinishdagi (11) tenglamalar tizimining maksimal qism tizimlaridan d.n.sh. ko‘rinishida berilgan mantiq algebrasi funksiyalarini ko‘paytirish algoritmidan foydalangan holda (13) tenglamaga o‘tish mumkin.

$$\prod_{i=1}^{\kappa}\Delta f_{j_i}=1 \tag{13}$$

2.2-paragrafda turli bazisdagi analitik ifodalarni hosil qilish va biridan boshqasiga o‘tish masalalari yechilgan, mantiq algebrasidagi funksiyalarning bir bazisdan ikkinchi bazisga transformatsiya qilish teoremalari isbotlangan.

1-teorema. Implikatsiya operatsiyalari ketma-ketligidan iborat $\xrightarrow[i=1]{n}A_i$ mantiqiy funksiyani quyidagi ifoda shaklida yozish mumkin:

$$\xrightarrow[i=1]{n}A_i=\begin{cases}\bigwedge\limits_{i=1}^{n/2}\bar{A}_{2i-1}\vee\bigvee\limits_{j=1}^{(n/2)-1}\left(A_{2j}\bigwedge\limits_{i=j}^{(n/2)-1}\bar{A}_{2i+1}\right)\vee A_n, & \text{agar } n=2k;\\ \bigvee\limits_{j=1}^{(n/2)-1}\left(A_{2i-1}\bigwedge\limits_{i=j}^{(n/2)-1}\bar{A}_{2i}\right)\vee A_n, & \text{agar } n=2k+1,\end{cases} \tag{14}$$

2-teorema. Sheffer shtrixining $\overset{n}{\diagup}A_i$ operatsiyalari ketma-ketligidan iborat bo‘lgan mantiqiy funksiyalarni $\mathfrak{N}_1=\{x_1\wedge x_2, x_1\vee x_2, \neg x\}$ tizimidagi quyidagi d.n.sh. sifatida kabi yozish mumkin:

$$\overset{n}{\diagup}A_i=\begin{cases}\bar{A}_1\bigwedge\limits_{i=1}^{(n/2)-1}A_{2i+1}\bigvee\limits_{j=1}^{(n/2)-1}\left(\bar{A}_{2j}\bigwedge\limits_{i=j}^{(n/2)-1}A_{2i+1}\right)\vee\bar{A}_n, & \text{agar } n=2k;\\ A_1\bigwedge\limits_{i=1}^{(n-1)/2}A_{2i}\vee\bigvee\limits_{j=2}^{(n-1)/2}\left(\bar{A}_{2j-1}\bigwedge\limits_{i=j}^{(n-1)/2}A_{2i}\right)\vee\bar{A}_n, & \text{agar } n=2k+1,\end{cases} \tag{15}$$

3-teorema. Agar ekvivalentlik ifodasida “~”($\leftrightarrow$) amali ketma-ket va toq sonda bo‘lsa, u holda uni *XOR* amali bilan almashtirish mumkin, agar u juft sonda bo‘lsa umumiy formuladan oldin inkor operatsiyasini kiritish lozim. Teoremani quyidagi (16) formula shaklida ifodalash mumkin:

$$\underset{i=1}{\overset{n}{\sim}}A_i=\left\{\sum_{i=1}^{n}A_i,\ \text{agar}\ \ n=2k+1;\quad \neg\left(\sum_{i=1}^{n}A_i\right),\ \ \text{agar}\ \ n=2k\right\} \qquad (16)$$

4-teorema. Sheffer shtrixi operatsiyasidan iborat mantiqiy ifodalar ketmaketligini $\{\wedge,+,1\}$ tizimida (17) kabi yagona tarzda ifodalanadi.

$$\overset{n}{\diagup}_{i=1}A_i=\bigwedge_{i=1}^{n}A_i+\sum_{i=3}^{n}\left(\bigwedge_{j=i}^{n}A_i\right)+1 \qquad (17)$$

2.3-paragrafda (18) kabi berilgan bul tenglamalar tizimini yechish algoritmining murakkablik baholalari keltirilgan.

